

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2019-yil yanvar-avgust

RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 1628,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 218,8 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1953,8 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1628,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,0 %) tashkil etadi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2019-yil yanvar-avgust oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida oldingi yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (81,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (32,6 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (220,0 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1628,3	122,4
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	97,0	110,4
moliyaviy xizmatlar	398,4	218,8
transport xizmatlari	276,9	102,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>261,4</i>	<i>102,4</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	35,9	106,2
savdo xizmatlari	488,0	107,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	42,6	102,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	61,0	110,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	23,5	105,6
ljara xizmatlari	36,5	103,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	44,0	103,7
shaxsiy xizmatlar	40,3	101,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	25,3	102,8
boshqa xizmatlar	58,9	115,2

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	1628,3	122,4
<i>shaharlar:</i>		
Guliston shahri	862,1	137,0
Shirin shahri	20,8	109,1
Yangiyer shahri	115,9	106,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	69,0	110,7
Guliston tumani	50,7	108,2
Mirzaobod tumani	77,7	112,3
Oqoltin tumani	37,2	109,1
Sardoba tumani	48,1	100,7
Sayxunobod tumani	91,4	115,9
Sirdaryo tumani	193,0	108,6
Xovos tumani	62,4	109,6


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2019-yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (218,8 %), boshqa xizmatlar (115,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (110,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (110,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi 488,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,0 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 81,7 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 67,2 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 27,4 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 398,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 218,8 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (91,8 %) katta salmoqqa egadir.

2019-yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 35,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 106,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar–avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,5 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019-yilning yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 61,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-avgust oylari bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 14,3 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-avgust oylari 1953,8 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 441,3 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 120,2 % qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, *ming so'm*



Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (9643,7 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 135,6 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (540,0 ming so'm), Xovos (664,1 ming so'm) va Guliston tumanlarida (714,2 ming so'm) kuzatildi.

2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, 2019-yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (135,6 %), Sayxunobod (113,9 %) va Mirzaobod tumanlarida (109,8 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar

